

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASDIQLANGAN YE'NALMA KUPYULLAN

BO'YIQTILGAN

60730300- Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

ЎЗР ОУМТВ  
Буйруқ №  
21.08.2023 йил

### **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti;
- Urganch davlat universiteti.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «24» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60730300 – Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....</i>	4
1.1.	Qo'llanilish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	6
2.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	9
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	9
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	10
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	11
2.3.2.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....</i>	11
2.3.3.	<i>60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni klassifikatsiyalash (tasniflash).....</i>	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	13
	Kelishuv varag'i.....	14

## **1. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

*60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi:**

**1.2.1. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi - fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, qurilish sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, uslublari hamda sanoat va

fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo'llash, bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasi, turar-joy binolariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalash bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.2. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- turar-joy binolari, mehmonxona, yotoqxon, kam va ko'p qavatli turar-joy binolari, jamoat binolari, bog'chalar, maktablar, akademik-litseylar, professional ta'lim muassasalari, OTM o'quv binolari, hokimiyat, davlat boshqaruvi binolari, barcha turdagi sanoat korxonalarini binolari.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- bino va inshootlar qurilishda mehnat faoliyatini tashkil etish;
- sanoat va fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo'llash;
- mehnatga haq to'lash uchun ajratilgan mablag'dardan foydalanish samaradorligini hisoblash;
- mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;
- mehnatni moddiy rag'batlantirish va muhofaza qilish;
- ish vaqti sarfini kuzatish;
- bino va inshootlarning texnik holatini baholash;
- bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasini tashkil etish;
- sanoat va fuqaro binolariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni tashkil etish;
- energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalarini ishlab chiqish.

**1.2.3. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot;
- loyiha-konstruktorlik;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;
- pedagogik (professional ta'limi tizimida).

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

#### **1.2.4. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavr bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- arxitektura va qurilish sohasiga tegishli yangi texnik vositalar, tizimlar, texnologiyalar, jarayonlar, qurilmalar, konstruksiyalar, yangi turdagi qurilish materiallari va konstruksiyalarini, muxandislik kommunikatsiya tizimlarini yaratishda va amaliyotga tadbiiq etishda, yangi mashinalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni sinovdan o'tkazishda zarur bo'lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

tanlangan faoliyat yo'nalishiga mos keluvchi ilmiy-texnik axborotlar, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilishi;

- berilgan uslublar bo'yicha eksperimentlarni qo'yish va o'tkazish, loyihalashni avtomatlashtirishning standartlashtirilgan paketlari asosida matematik modellashtirish usullarini egallagan bo'lishi;

- bino va inshootlar qurilishi sohasiga tegishli nazariy, amaliy, fundamental, innovatsion va tajribaviy ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirilishida ishtirok etish;

- ilmiy-tadqiqot, loyiha institutlari va baholash konsalting xizmati markazlarida axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

- axborot xavfsizligiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet-el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

- respublika va xorijda chop etilgan ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

- internet tarmog'idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirib topish va amaliyotga qo'llash;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

- bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tuzish, berilgan uslublar bo'yicha eksperimentlarni qo'yish va bajarish usullarini egallash.

##### **Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:**

- turar-joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni arxitekturaviy loyihalash tamoyillari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;

- fuqaro va sanoat bino va inshootlarining muhandislik tizimlari va jixozlarini loyihalash borasida tasavvurga ega bo'lish;
- turar-joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarini loyihalashni;
- sanoat, fuqaro bino va inshootlarini ko'rish, ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish bilan bog'liq loyihalarini ishlab chiqish;
- yuk ko'taruvchi qurilish konstruksiyalari va uskunalarni avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda hisoblash va konstruksiyalash;
- ichki va tashqi to'siq konstruksiyalarni hisoblashni va loyihalash;
- loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy-konstruktorlik ishlarini rasmiylashtirish;
- binolarning energiya samaradorligini ta'minlaydigan hajmiy-tarxiy va konstruktiv yechimlarini loyihalash, energiya samarador qurilish materiallari va injenerlik qurilmalaridan foydalanish;
- ishlab chiqiladigan loyihalar va texnik hujjatlarni, topshiriqlar, standartlar, me'yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta'minlash.

#### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

- qurilish ob'ektlarida usta (master), ish yurituvchi (prorab) bo'lib ishlash, qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini bajarish;
- turli qurilish ob'ektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy-texnologik xaritalarini tuzish va qo'llash;
- qurilishda qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jixozlarga buyurtmalar) tuzish;
- qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash;
- qurilish ob'ektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilish infrastrukturasi va ishlarini tashkil etish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilishi sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

- arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolarini qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilishni amalga oshirish ishlari sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish hamda tadbiq qilish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tadbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har-xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muxitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish.

#### **Foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:**

- turar-joy, jamoat va sanoat binolaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolari konstruksiyalari, muxandislik kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolarni qurish-ta'mirlash ishlarini tashkil etish bo'yicha xizmat ko'rsatish;

- turar-joy, jamoat va sanoat binolar konstruksiyalar va asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirish va qoldik resursini baholash usullarini aniqlash.

#### **Pedagogik faoliyatida (professional ta'limi tizimida):**

- professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha maxsus fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;



- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- internet tarmog'idan o'qitiladigan fanlardan eng yangi xorijiy darslik va o'quv materiallarini qidirish, topish va o'quv jarayoniga tadbqiq etish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbqiq etish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

## **2. 60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetenstiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetenstiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lish;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- Me'yoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
  - arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;
  - qurilish ob'ektlarida usta (master), ish yurituvchi (prorab) bo'lib ishlash, qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini bajarish;
  - turli qurilish ob'ektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy-texnologik xaritalarini tuzish va qo'llash;
  - qurilishda qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;
  - turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;
  - turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilganida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jixozlarga buyurtmalar) tuzish;
  - Qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash;
  - qurilish ob'ektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
  - ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

-Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

-Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

-Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida, ixtisoslashuvidan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita iqtisodligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalisi bo'yicha quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

- 1-bosqichda malakaviy amaliyot – o'quv-tanishuv amaliyot o'tilgan fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;
- 2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha

korxonada, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

- 4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonada, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

- Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

### 2.3.1. Kvalifikatsiya

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarga muhandis-quruvchi kvalifikatsiyasi beriladi.

2.3.2. 60730300 - *Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar*

2.3.3. 60730300 - *Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni klassifikatsiyalash (tasniflash).*

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4890	163
Tanlov fanlari	1680	56
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5
<b>Jami</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>

60730300 - Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4890	163	
1.01.	OMAB1092	Oliy matematika	270	9	1,2
1.02.	FIZB1092	Fizika	270	9	1,2
1.03.	QATB1092	Qurilishda axborot texnologiyalari	270	9	1,2
1.04.	O'(R)TB1041	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.05.	HTIB1042	Xorijiy til	120	4	1,2
1.06.	FALB2041	Falsafa	120	4	3
1.07.	DinB2041	Dinshunoslik	120	4	3
1.08.	O'EYTB1041	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09.	JTSB1041	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
1.10.	ChGMGB110 2	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	300	10	1,2
1.11.	QMEB1184	Qurilish mexanikasi (nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, qurilish mexanikasi)	540	18	2,3,4,5
1.12.	IGEB2051	Injenerlik geodeziyasi	150	5	4
1.13.	QMBB2092	Qurilish materiallari va buyumlari	270	9	3,4
1.14.	YZYKB2041	Yog'och va zamonaviy yengil konstruksiyalar	120	4	4
1.15.	MKOB3092	Metall konstruksiyalar	270	9	5,6
1.16.	TBTKB3092	Temir beton va tosh konstruksiyalar	270	9	6,7

1.17.	SFBAB2153	Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi	450	15	3,4,5
1.18.	BIKB3051	Binolarning injenerlik kommunikatsiyalari	150	5	5
1.19.	QJTB3102	Qurilish jarayonlari texnologiyasi	300	10	5,6
1.20.	GMZPB3092	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	270	9	6,7
1.21.	BIZB4092	Bino va inshootlar zilzilabardoshligi	270	9	7,8
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1680</b>	<b>56</b>	
		<b>Jami</b>	<b>6570</b>	<b>219</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	
		<b>Jami</b>	<b>630</b>	<b>21</b>	
			<b>7200</b>	<b>240</b>	

### Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01:040.01

#### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ektda, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv tarmoqlar va sohalar malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim malaka amaliyoti bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki ta'lim, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni bino inshoot, loyiha loyihalash avtomatlashtirilgan loyihalash, issiqlik himoyasi, konstruktsiya, hisoblash, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, konstruktiv yechim konstruktiv sistema, qurilish ishlab chiqarish, qurilish materiallari, turar-joy binolari hajmiy-tarxi, temir-beton konstruksiyalar, metall, hisobiy yuklar deformatsiya, birikmalar, metrologiya standartlashtirish, sanoat binolari, suv ta'minoti, kanalizatsiya shamollatish, zamin poydevor, grunt qurilishini tashkil qilish va rejalash jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda  
kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Urganch davlat universiteti  
Rektor  B. Abdullayev  
2023 yil " " " "


M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Rektor  E. Kahya  
2023 yil " " " "


Direktor  SH. Yakubov  
2023 yil " " " "

M.O.

M.O.

Xorazm viloyati qurilish va uy-joy  
kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy  
kommunal xo'jaligi sohasida hududiy  
nazorat qilish inspeksiyasi

Boshlig'i  B.P. Karimov  
2023 yil " " " "

M.O.

Boshlig'i  M. Allaberganov  
2023 yil " " " "

M.O.

## Urganch davlat universiteti

**60730300- Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

### KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori E.Kahya va Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i B.P.Karimov birgalikda Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

### 60730300- Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)

#### ta'lim yo'nalishi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy  
kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi  
boshlig'i



B. Karimov

Urganch davlat universiteti  
rektori



B. Abdullayev

Toshkent arxitektura-qurilish  
universiteti rektori

E. Kahya

E. Kahya

**Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan 60730300- Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.



Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalarini talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Xorazm viloyati qurilish va uy-joy  
kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi  
boshlig'i**



**B.P.Karimov**

**Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan 60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

Urganch davlat universitetida 60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob'ektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730300-Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

**“Bino va inshootlarni loyihalash”**

**kafedrasi mudiri**



**Sh.Baymatov**